

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

HAZRATQULOVA OZODA ABDUG‘ANIYEVNA

**OLIV FILOLOGIK TA‘LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA
ISHLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctoral (DSc) on pedagogical
sciences

Hazratqulova Ozoda Abdug‘aniyevna

Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik
asoslarini takomillashtirish3

Хазраткулова Озода Абдуганиевна

Совершенствование научно-методических основ работы над учебными
заданиями в высшем филологическом образовании.....31

Khazratkulova Ozoda Abduganiyevna

Improving the scientific and methodological foundations of working on
educational assignments in higher philological education63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

HAZRATQULOVA OZODA ABDUG‘ANIYEVNA

**OLIV FILOLOGIK TA‘LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA
ISHLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B.2024.4.DSc/Ped.1015 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.buxdpi.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Hamroyev G'ofir Hasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Roxat Gaybullayevna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Tursunali
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy.) Tel.: (365)226-10-96; faks: (365)226-10-96; e-mail: (buxdpi@buxdpi.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). ((Manzil: 200100, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy Tel.: (365) 226-10-96;

Dissertatsiya avtoreferati 20__ - yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(20__ - yil "____" _____da ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.B.Ma'murov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

G.R.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, p.f.d. (DSc), professor

M.M.Bafayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, ps.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida, xususan, tillarni o'qitishda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish nutqiy hamda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida tadqiq qilinmoqda. "YUNESKOning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasi"da ta'lim sifatli ijodiy tafakkur va bilimni rag'batlantirishda eng muhim omil ekani ta'kidlangan¹. Xalqaro til o'qitish metodikasi sohasida andaza sifatida qabul qilinayotgan xorijiy til ta'limi yutuqlaridan Germaniya, Fransiya, Amerika, Janubiy Koreya, Shveysariya, Turkiya, Vengriya, Rossiya va Xitoydagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlari asosida o'qitishni tashkil etish, ta'lim mazmuni va metodlariga zamonaviy yondashuv asosida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Dunyoda tillarni o'qitishga doir ilmiy-metodik adabiyotlarda matn ustida ishlash, turli uslubda taqdim qilingan ma'lumotlarni o'qib tushunish va munosabat bildirish, mashq, savol va topshiriqlar ustida ishlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir mashg'ulotda taqdim qilingan ma'lumotning talaba uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga va ta'lim jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro til ta'limi tajribasida o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratilishi, o'quv topshiriqlari belgilangan muayyan mezonlar asosida shakllantirilishi, shuningdek, bugungi globallashuv sharoitda mutaxassislik fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda o'qitish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda o'zbek tilining hozirgi o'zbek adabiy tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish, hozirgi o'zbek adabiy tili o'qitish metodikasini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchi tafakkurini rivojlantirish masalasi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta'limiga ham zarur talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda "ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish"² filologik ta'lim oldiga, xususan, tafakkurni rivojlantiruvchi, mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlari ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishni dolzarb vazifa sifatida qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

¹Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea)

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида"ги ПФ-4797-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил 14 май, № 94.

PF-6084-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi “Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to‘g‘risida”gi 419-son, 2020-yil 11-martdagi “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-son Qarorlari, 2020-2030-yillarda amalga oshirish dasturida hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitish metodikasini yaratishga doir belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, til o‘qitish metodikasiga alohida e’tibor berilib, o‘qitish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish muammosi tadqiq etilmoqda. Jumladan, Mugla Universiteti (Turkiya), Indiana University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Научный центр гуманитарных исследований (Rossiya) kabi ko‘plab ilmiy markazlarida tadqiqot muammosiga daxldor masalalar o‘rganilib kelinmoqda.

Tilni matn ustida ishlash orqali o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish hamda bu boradagi mustaqil ishlarni tashkil qilish tizimi ishlab chiqilgan (Turkiya); o‘quv topshiriqlarining funksiyalari bo‘yicha (Rossiya Federatsiyasi); kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (AQSh); til o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar (Buyuk Britaniya); Germaniya oliy ta’lim muassasalarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda o‘quv topshiriqlar ustida ishlash ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan.

Dunyo ta’lim tizimida interaktiv o‘qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo‘yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta’limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitish muammolari (Baku: Azərbaycan Dövlət Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanish olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘quvchi-yoshlarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, tilshunoslik fanlarini o‘qitishga doir muhim ilmiy-metodik izlanishlar J.G‘.Yo‘ldoshev, M.H.Mahmudov, R.Safarova, O‘.Tolipov, Sh.A.Abdullayeva, B.I.Xodjayev³lar olib borgan. Tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, S.Matchanov,

³Йулдошев Ж.Г. Замонавий дарс технологияси. Ўқув-услугий кулланма. «Фан ва технология»Тошкент, 2020. – 240 б. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари: пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 42 б., Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон ОТМларида Ҳозирги ўзбек адабий тили таълими назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док-ри. дисс. – Т., 1998. – 252 б.,Толіпов.У.К. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий куникама ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Педюфанодок-рию диссю – 2004. – 242 б.

Q.Husanboyeva, G.N.Najmiddinova⁴lar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o'quv topshiriqlari vositasida o'quvchi faolligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Ona tili o'qitishning samaradorligini oshirish va ta'lim mazmunini yangilash muammosi A.G'ulomov, H.Ne'matov, R.Safarova, D.Yo'ldosheva, Sh.Yusupova, N.Yuldasheva, M.Saidov, N.Alavuddinova, T.Yusupova, X.Muxitdinova, G'.Hamroyev, M.To'raboyeva, M.Mirqosimova, K.Mavlonova, G.K.Rasulovalar⁵ tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlari M.V.Klarin, A.I.Lipkina, V.A.Shamis, L.V.Xoxlova, D.M.Shakirova, S.V.Marudina, I.O.Zagashev, Y.A.Samarin, L.S.Rubinshteyn, Y.D.Bojovich, J.A.Ponomarev, A.N.Leontev⁶larning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashga o'rgatish, o'quv topshiriqlarini tavsiflashga doir masalalar yoritilgan.

Xorijlik olimlar D.Galperin, R.Pol, M.Scriven, P.Facione, R.Strenberg, Y.Torrens, R.Boostrom, J.Huges, S.Schafersman, Jak Richardslarning tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish, oliy filologik ta'limda til o'qitishning nazariy va amaliy masalalari o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "O'zbek tili ta'limining dolzarb muammolari(2022-2026-y.y.)" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁴Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения: автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 1994. – 44 с.; Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. – М.: Учитель, 1981. – 103 с.; Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: Қори Ниёзий номли ЎзПФИТИ, 2002. – 265 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 280 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида талабаларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт.-ри дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2006. – 262 б.

⁵ Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 37 с. Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 137 б., Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида луғавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 123 б., Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2000. – 25 б., Алавуллонова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2008. – 24 б., Юсупова Т. Узлуксиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлақларни ўргатиш: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 22 б., Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ – Тошкент, 2011. – 270 б., Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. –Toshkent, Donishmand ziyo. 2021. 156 b., To'raboyeva M. 5-9-sinf ona tili ta'limida uzviylikni ta'minlash asosida tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar tizimini takomillashtirish: ped. fan. d.-ri. ... diss. avtoref. NamDU. – Namangan, 2025. – 25 b.б Mirqosimova M. "Badiiy Pedagogika" Lesson press nashriyoti. 2019 y. T. 184 bet., Mavlonova K. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн оркали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан.фал.док...дисс.автореферати.-Тошкент:2019.-226.

⁶ Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1976. – 416 с.; Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. – М., 1976. –280 С. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining didaktik imkoniyatlarini, til ta'limida tutgan o'rni va vazifalarini aniqlash;

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining funkciyasini, til ta'limida nutqiy kompetentsiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga erishish mumkinligini asoslash;

filologik ta'limda savol tuzish va savol berishga pragmatik usulda yondashishda lingvodidaktik jihatdan afzalliklarini dalillash;

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning metodik imkoniyatlari, uning turlarini tasniflash hamda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini aniqlashtirish;

oliy filologik ta'limda baholash tizimi, talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini amaliyotda qo'llash samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlariga Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Termiz davlat universiteti, Qo'qon davlat universiteti, Urganch davlat universiteti talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish shakllari, usullari, texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kognitiv-pragmatik pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnomasi, pedagogik suxbat, qiyosiy tahlil, tasniflash, statistik tahlil, intervyu, tizimli tahlil, ta'lim jarayonini monitoring qilish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining didaktik imkoniyatlari lingvistik tushunchalarga pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berilib, ularning o'zaro farqi, qo'llanilish o'rinlari ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirilib, til ta'limida tutgan o'rni va vazifalari aniqlashtirilgan;

o'quv topshiriqlarining funkciyasi bilim ko'nikma va malaka hosil qilish, savol va topshiriqlardan biror amalni bajarishga yo'naltirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashga undash hamda til ta'limida nutqiy kompetentsiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga erishish mumkinligi umumlashtirilgan;

filologik ta'limda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslanib, uning metodik imkoniyatlari aniqlashtirilgan holda matn ustida ishlash jarayonida savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda nutq vaziyatidan kelib chiqib, savol berishning til ta'limi uchun lisoniy-metodik darajalarining ahamiyati pragmatik usulga ustuvorlik berish asosida ilmiy-metodik afzalliklari dalillangan;

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning metodik imkoniyatlari talabalarning kommunikativ va kreativ fikrlashini rivojlantirishda matn ustida ishlashni bosqichma-bosqich tashkil etilishi o'quv topshiriqlardan foydalanishda interfaol va dialogik metodlardan foydalanish, "pragmatik topshiriqlar", "muammoni yechish" va "ijodiy fikrlash"ga doir hamda amaliy mashqlar turlari nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalar til ta'limini loyihalash vositalarining o'zaro uyg'unligi asosida ilmiy

jihatdan aniqlashtirilgan;

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasining samaradorligi ko'p bosqichli pedagogik tajriba-sinovlar, diagnostik baholash natijalari imperik jihatdan asoslanib, nazariy ma'lumotni amalda qo'llay olish hamda o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlar tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining ilmiy-nazariy tomondan takomillashtirilgan, tushunchalar pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan tavsiflangan, ularning o'zaro farqi, qo'llanilish o'rinlari, til ta'limida tutgan o'rniga bag'ishlangan "Hozirgi zamon filologiyasi: muammolar, tahlil va natijalar" (2025-yil, 10-aprel, TTA, Termiz filiali) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi;

oliy filologik ta'limda mashqlardan, ko'nikma va malaka hosil qilishda, savol va topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish, mustaqil va kreativ fikrlashga undash hamda til ta'limida nutqiy kompetentsiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga doir "Lotin tili" nomli darslik nashr etildi;

filologik ta'lim jarayonida matn ustida ishlash, savol va topshiriqlar asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda til o'qitish jarayoniga pragmatik usulda yondashishga oid "Chet tili o'qitish metodikasi" nomli darslik chop etildi;

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilovchi "O'quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etildi;

60230100 - filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabalari va o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilari uchun ona tili ta'limida savol va topshiriqlar ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga, muammolarni hal etish, munosabat bildirish, dalillar ustida ishlash malakasini takomillashtirishga doir "Filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning metodik asoslari" nomli ilmiy seminar tashkil etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish muammosiga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashilganligi, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalarga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalar soni talab darajasida ekanligi. Tajriba-sinov natijalarining reprezentativlik darajasi yuqoriligi, statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi, mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuni hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy metodik asoslari muayyan ilmiy qarashlar va emperik dalillar bilan boyitilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida "mashq", "savol", "o'quv topshiriq" tushunchalarining mazmuniy va funksional farqlari tizimli tahlil qilinib ularning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi hamda takomillashtirildi. Shuningdek, oliy

filologik ta'limda hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda o'quv topshiriqlarini tuzishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ushbu jarayon samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Olingan natijalarda o'quv topshiriqlarini tuzishda, til ta'limida nutqiy kompetensiyalarni tizimli hosil bo'lishiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda, o'quv jarayoni mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablari va malaka talablari takomillashtirishda foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan o'quv qo'llanma va darsliklar yaratirshda hamda filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalaishini tamomlagandan keyingi innovatsion kasbiy faoliyatni rivojlantirishda muhimligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining didaktik imkoniyatlari lingvistik tushunchalarga pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berilib, ularning o'zaro farqi, qo'llanilish o'rinlari ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirilib, til ta'limida tutgan o'rniga doir xulosadan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarga mo'ljallangan AM-FZ-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihadan foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-oktabrdagi № 01/4-4877-son ma'lumotnomasi). Natijada, til o'qitish metodikasi darsliklarining mazmuni, xususan, rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlar qismi pragmatik yondashuv asosida takomillashtirilgan;

o'quv topshiriqlarining funksiyasi bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish, savol va topshiriqlardan biror amalni bajarishga yo'naltirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashga undash hamda til ta'limida nutqiy kompetensiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlantirishga doir tavsiyalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo'ljallangan RZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihaning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash qismini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025 yil 13 oktabrdagi № 01/4-4878-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, filologiya fanlarini o'qitishga doir o'quv topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

filologik ta'limda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslanib, uning metodik imkoniyatlari aniqlashtirilgan holda matn ustida ishlash jarayonida savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda nutq vaziyatidan kelib chiqib, savol berishning til ta'limi uchun lisoniy-metodik darajalarining ahamiyati pragmatik usulga ustuvorlik berish asosida ilmiy-metodik

xulosalardan “Til o‘qitish metodikasi” darsligini yaratishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘i asosida 55407-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari tuzish hamda talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlashning metodik imkoniyatlari talabalarning kommunikativ va kreativ fikrlashini rivojlantirishda matn ustida ishlashni bosqichma-bosqich tashkil etilishi o‘quv topshiriqlardan foydalanishda interfaol va dialogik metodlardan foydalanish, “pragmatik topshiriqlar”, “muammoni yechish va ijodiy fikrlash”ga doir hamda “amaliy mashqlar” turlari nutq faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyalar til ta’limini loyihalash vositalarining o‘zaro uyg‘unligiga oid tavsiyalardan O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” telekanalining “Ta’lim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz” kabi ko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston telaradiokompaniyasining 2026-yil 6-yanvardagi 05-09-8-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvlarning mazmuni ilmiy-metodik jihatdan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi natijalari bo‘yicha 24 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Jumladan, 1 ta monografiya, 2 ta darslik, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika, 3 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Asosiy matn – 240 sahifa.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika va fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlashning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida filologik ta’limni isloh qilishning lingvodidaktik asoslari, filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari va filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarining holatining tahlili xususida fikrlar bayon etilgan.

Filologiya fanalaridan foydali bilimlar deb talabalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan

bilimlarni tushunamiz”.⁷ Bunda o‘quv topshiriqlar ta’lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim omil hisoblanadi. Ta’limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar ham– mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular – til ta’limi mazmunini, o‘qitish metodikaning asosini tashkil etadi.

Oliy filologik ta’limda bu tushunchalarga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Topshiriq – bu talabalarning til va adabiyotga oid nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash, matnni tahlil qilish, izohlash hamda nutqiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli o‘quv vazifasidir.

Mashq – bu talabalarning til va adabiyotga oid nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash hamda nutqiy va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi takroriy va maqsadli o‘quv faoliyatidir.

Savol – bu talabalarning til va adabiyotga oid bilimlarini aniqlash, ularning fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv vositasidir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida bajariladigan o‘quv topshiriqlarini bosqichli ketma-ketlik tamoyiliga asoslangan holda bir necha topshiriqdan iborat qilib berish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, “sodda yoyiq gap” mavzusi o‘rganilgandan keyin talabalarga beriladigan mashq quyidagi topshiriqlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Berilgan ixcham gaplardan (bajardilar, boramiz, keldik, yozayaptilar) sodda yig‘iq gaplar hosil qilish;

2. Tuzilgan gaplarda ega va kesimni aniqash;

3. Sodda yig‘iq gaplarni kesimdan so‘roq berib, ularni to‘ldiruvchilar va aniqlovchilar bilan kengaytirish;

4. Hosil bo‘lgan yoyiq gaplardagi so‘zlarni birikma holida alohida-alohida ajratib yozish.

Bugungi kunning eng muhim masalasi – ta’limni hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Agar hozirgi o‘zbek adabiy tili oddiy o‘quv predmeti emas, qadriyat sifatida o‘qitilsa, talabalarda o‘z-o‘zidan teran tafakkur va milliy g‘urur shakllanadi. Shunda hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishga talabalarda katta qiziqish uyg‘onadi.

Tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar quyidagilar bilan xarakterlanadi:

— topshiriq sharti talabani izlash, qidirish, noma’lumni izlab topishga undashi bilan;

— mashqlarning ko‘p topshiriqlilik asosida tuzilganligi va bir topshiriqni bajargandan keyin ikkinchi topshiriqqa o‘tishi bilan;

— topshiriqlarni hukm, xulosa va umumlashma hosil qilishga yo‘naltirilganligi bilan;

— tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishda talabaning o‘zidagi mavjud bilimlarning yetarli emasligini tushunishi va yangi bilimlarni egallashga zaruriyat sezishi bilan.

⁷Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

Zamonaviy filologik ta'lim tizimida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish pedagogik va psixologik omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan o'quv topshiriqlarini takomillashtirish ta'limning maqsad va natijalari bilan uyg'un holda loyihalashni talab etadi. Filologik fanlarni o'qitishda topshiriqlar bilimlarni reproduktiv tarzda qayta tiklashga emas, balki ularni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va amaliyotga tadbiiq etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Psixologik nuqtayi nazardan o'quv topshiriqlarining mazmuni talabalarning yosh va individual xususiyatlariga, bilish jarayonlarining rivojlanish darajasiga mos kelishi muhimdir. Topshiriqlar idrok, xotira, tafakkur va nutq faoliyatini faollashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytirishi zarur.

1-jadval.

O'quv topshiriqlarning tavsifi va hususiyatlari

Pedagogik-psixologik asos	Mazmuni	O'quv topshiriqlaridagi amaliy ko'rinishi
Talabaning individual xususiyatlarini hisobga olish	Talabaning qobiliyatini, o'quv motivatsiyasi va psixologik xususiyatlariga moslash	Individuallashtirilgan topshiriqlar, mustaqil izlanish, qiziqish asosida mashqlar
Bilimning bosqichma-bosqich shakllanishi	Bilim va ko'nikmalarni asta-sekin, izchil o'zlashtirish	Axborot beruvchi, mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi mashqlarni bosqichma-bosqich qo'llash
Motivatsiya va faoliyatni rag'batlantirish	Talabaning ichki qiziqishini uyg'otish, faollikni oshirish	Muammoli va ijodiy topshiriqlar, o'z-o'zini baholash, refleksiya elementlari
Mustaqil va hamkorlikdagi faoliyat	Mustaqil izlanish va jamoaviy ish orqali ko'nikmalarni rivojlantirish	Guruhli muhokama, loyiha asosida ishlash, rolli o'yinlar, cases-stadi
Tafakkur va ijodiy faoliyatni rivojlantirish	Analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish	Badiiy matn tahlili, stilistik va pragmatik vaziyatlarni yechish, lingvistik hodisalarni izlanish asosida o'rganish
Baholash va refleksiya mexanizmlari	Talabaning rivojlanish jarayonini aniqlash va mustahkamlash	Formativ baholash, o'z-o'zini va o'zaro baholash, guruhiiy refleksiya

Takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak:

- talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;

- talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga;

- nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnatilgan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos topshiriqlar ishlab chiqishga erishish lozim. Bunda hozirgi o'zbek adabiy tilida darsga javob berishi kerak bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, filologik ta'lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish.

2. Talabalarning bilish faoliyati uchun tegishli bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga oid o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish.

3. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog‘lanishlarni e‘tiborda berish.

4. Shaxsning barcha muloqot uchun zarur bo‘lgan barcha kasbiy malaklarini rivojlantirish, natijalariga ko‘ra rag‘batlantirish va faollashtirish.

5. Tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish.

6. Tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari talabada bilim olish, fikrlash, kasbiy ko‘nikmalarni egallashtirishdan tashqari, o‘zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Filologik ta‘lim — til va adabiyot fanlari asosida shakllangan tizimli bilimlar majmuasi bo‘lib, talabalarda til va adabiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan o‘quv topshiriqlari esa talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, tahliliy va ijodiy yondashuvlarini shakllantirishda muhim vosita sanaladi.

2-jadval

Soha / Aspekt	Mavjud holat	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari / Kamchiliklari	Takomillashtirish imkoniyatlari
Topshiriqlar turlari	Asosan reproduktiv va mustahkamlovchi mashqlar	Talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash	Ijodiy va muammoli topshiriqlar kam qo‘llaniladi	Muammoli, tahliliy va ijodiy topshiriqlarni joriy etish
Mustaqil ishlash	Talabalar ko‘pincha o‘qituvchi nazorati ostida ishlaydi	Nazariy bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirish	Mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalari yetarli rivojlanmagan	Mustaqil va loyihaga yo‘naltirilgan mashqlar qo‘llash
Hamkorlikda ishlash	Guruh ishlari va loyiha mashqlari cheklangan	Individual ishlash natijaviy bo‘lishi mumkin	Hamkorlikdagi muloqot va ijodiy ko‘nikmalar rivojlanmaydi	Guruhli muhokama, rolli o‘yin va loyiha asosidagi mashqlarni kengaytirish
Baholash va refleksiya	Ko‘pincha yakuniy nazoratga yo‘naltirilgan	Bilim darajasini aniqlash mumkin	Formativ baholash va o‘z-o‘zini baholash elementlari yetarli emas	Formativ baholash, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholashni joriy etish
Fanlararo integratsiya	Asosan individual fanlar doirasida amalga oshiriladi	Har bir fan bo‘yicha bilimlar mustahkamlanadi	Fanlararo bog‘lanish va amaliy yo‘naltirish yetarli emas	Lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslikni integratsiyalash

O‘qitish ehtiyojlari asosida quyidagi xususiyatlar ta‘kidlanadi: 1) qurish (strukturalash) imkoniyati; 2) strukturani qurish va qayta ko‘rib chiqish; 3) o‘quv materialini shaklining mavjudligi; 4) o‘quv jarayoni bosqichlarining mutanosibligi; 5) bir vazifani boshqalarga almashtirish imkoniyati; 6) ochiq tizim; 7) bir-birini to‘ldirish; 8) bilimlarni o‘rganish va takomillashtirish usullarining talablarga

mosligi; 9) o‘qitish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarining turlari va funksional xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, unda filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarining turlari va tavsifiy jihatlari, mashqlar – filolog mutaxassis tayyorlashning asosiy vositasi sifatida hamda filologik ta’limda savol, o‘quv topshirig‘ining tasnifiy xususiyatlariga bag‘ishlangan masalalar yoritilgan. Oliy filologik ta’lim jarayonida o‘quv topshiriqlari talabalarning lingvistik bilimlarini shakllantirish, ularni amaliy nutqiy faoliyatga tadbiiq etish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. O‘quv topshiriqlarining mazmuni, shakli va bajarilish mexanizmi til ta’limida qo‘llanilayotgan yondashuv va metodik tamoyillarni belgilaydi. Shu bois, ularni turlarga ajratish va funksional xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari turlari va ularning funksional xususiyatlari ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Topshiriqlarni ilmiy-metodik asosda to‘g‘ri tanlash va loyihalash talabalarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

3-jadval

Topshiriq turi	Mazmuni	Funksional xususiyatlari
Reproduktiv (qayta tiklash)	O‘rgangan nazariy bilimlarni eslab qolish va qo‘llash	Bilimlarni mustahkamlash, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish, tezkor nazorat vositasi sifatida ishlatiladi
Mustahkamlovchi	Bilim va ko‘nikmalarni takrorlash, tizimlashtirish	O‘quv faoliyatini strukturaviy rivojlantirish, xotira va ko‘nikmalarni barqarorlashtirish
Tahliliy / Muammoli	Lingvistik, adabiy yoki tarjimaviy vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish	Mustaqil fikrlash, tahlil va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativlikni rag‘batlantirish
Ijodiy	Yangi matn yaratish, alternativ yechimlar taklif qilish, esse yoki loyihalar	Ijodiy fikrlashni rivojlantirish, amaliy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, talabanning individual izlanishini rag‘batlantirish
Hamkorlikdagi	Guruhda muhokama, loyiha, rolli o‘yinlar va cases-stadi	Kommunikativ va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash, jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish
Baholashga yo‘naltirilgan	Testlar, formativ va yakuniy baholash topshiriqlari	Talabanning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash, o‘z-o‘zini va guruh bo‘yicha baholash, o‘quv jarayonini tahlil qilish

Topshiriqlar egallangan bilim ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirib ko‘rish – sinash vazifasini ham bajaradi:

1. Tanlash, qiyoslash, ajratish va umumlashtirish ko‘nikmalarini sinashga doir topshiriqlar.

2. Bilimning oshganligi va xotira mustahkamlanganligini tekshiruvchi topshiriqlar.

3. Ko'nikmalarni sinashga doir topshiriqlar.
4. Malakalarni sinashga doir topshiriqlar.
5. Kompetensiyani sinashga doir topshiriqlar.

Topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda BLUM taksonomiyasidan ham bevosita foydalanish lozim. Taksonomiya o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), effektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakatli). Shu bilan birga, agar talabalarga o'z-o'zini anglash uchun taqdim etiladigan o'quv materiallari maxsus topshiriqlar bilan taqdim etilsa, ikkinchisining shakllanishi samaradorligi yuqori bo'ladi.

Oliy filologik ta'limda nutqiy ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantiruvchi topshiriqlarning tarkibi quyidagicha:

4-jadval

Topshiriq turi	Mazmuni	Rivojlantiradigan nutqiy ko'nikmalar
Og'zaki nutqni rivojlantiruvchi	Suhbatlar, munozara, rolli o'yinlar, prezentatsiyalar	Suhbatlashish, fikrlarni izchil va lo'nda ifodalash, tinglab tushunish, muloqot madaniyati
Yozma nutqni rivojlantiruvchi	Insho, esse, referat, tarjima mashqlari	Matn yaratish, fikrlarni strukturaviy ifodalash, grammatika va leksik aniqlik
Tahliliy topshiriqlar	Matn tahlili, stilistik va pragmatik vaziyatlarni yechish	Tanqidiy fikrlash, tahliliy va argumentatsiyalash ko'nikmalari
Muammoli va ijodiy topshiriqlar	Yangi matn yaratish, muqobil yechimlar, kreativ vazifalar	Ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv, muammoli vaziyatni yechish ko'nikmalari
Guruh va hamkorlikdagi topshiriqlar	Loyiha, case-study, jamoaviy mashqlar	Hamkorlikda muloqot qilish, fikr almashish, guruh bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalari
Baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar	Testlar, o'z-o'zini va o'zaro baholash, formativ baholash	O'z fikrini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish, o'quv jarayonini nazorat qilish

Topshiriq hozir amalda bo'lgan ona tili darsliklarida yangilik sifatida kiritilgan. Albatta, bu ijobiy hodisa. Biroq ulardan dars jarayonida o'rinli, samarali foydalanish yanada muhim ahamiyatga ega.

Filologik ta'limga oid o'quv metodik adabiyotlarda o'quv topshiriqlardan foydalanish maqsadi va holati:

5-jadval

T/r	O'quv adabiyotlar	Savol	Mashq	Topshiriq	Maqsad /vazifasi
1.	Tilshunoslikka kirish. M.Irisqulov	+		+	Talabani mustaqil ishlatish
2.	O'zbek tili o'qitish metodikasi Boqijon To'xliyev	+	+	+	Mavzuni mustahkamlash
3.	Hozirgi o'zbek adabiy tili Hasan Jamolxonov	+			Mavzuni mustahkamlash
4.	Chet tili o'qitish metodikasi Jamol Jaololov			+	Mustaqil nazorat qilish
5.	Umumiy tilshunoslik Ravshanxo'ja Rasulov	+	-	-	Mustahkamlash uchun

Mashq – nutqiy ko‘nikmalarini hosil qilish yoki takomillashtirish va malakalarini rivojlantirish maqsadida til (nutq) mashqlari yoki harakatlarni maxsus tashkil etilgan holda takroran bajarish mumkin. Mashq o‘quv vositalari toifasiga mos ravishda, ya’ni ularning ierarxiyasidagi eng past qadam sifatida ko‘rib chiqilsa, o‘qituvchi va talabalar faoliyatini boshqarish vazifasini va ularning o‘zaro munosabatlarini bajarishga muayyan sharoit yaratadi.

Mashqlar odatda ikki asosiy xususiyat – maqsad va unga erishish vositasi bilan tavsiflanadi. Bu maqsadlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: talabalarga til bilimlarini yetkazish, til va nutq malakalarini shakllantirish yoki takomillashtirish hamda nutqiy malakalarini rivojlantirish.

Mashqlarning maqsadli jihati ko‘rsatmalar, topshiriq va boshqalar shaklida taqdim etiladi. Topshiriq muayyan talablarga javob berishi kerak:

a) talabalar harakatlarini rag‘batlantirish va ular uchun aniq vazifa qo‘yish tarzida shakllantiriladi;

b) nutqoldi yo‘nalganlik omillarini – vaziyatni aks ettiradi (kim? kim bilan? nima haqida? nima uchun?);

d) muayyan nutq mahsuli va natijasini maqsad qilib olish.

Mashqni tushuntirish uchun boshqa o‘quv topshiriqlari bilan yonma-yon keltirib taqqoslagani ma’qul quyidagi jadvalda mashqni savol va topshiriqdan farqlovchi namunalar keltirildi:

6-jadval

O‘quv vositasi	Mazmuni / Tavsifi	Amaliy misol	Farqlovchi xususiyat
Mashq	Talabaning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, amaliyotga tadbiq etishga yo‘naltirilgan faoliyat	Grammatik qoidalarni qo‘llash, lug‘at birliklarini ishlatish, matn bo‘yicha mashqlar	Takroriy va sistematik ishlash, nazariy bilimlarni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan, natijaga doimiy erishish maqsadi bilan
Savol	Talabaning bilim darajasini aniqlash yoki fikrlashini rag‘batlantirish	“Bu matnda qanday stilistik vositalar ishlatilgan?”	Javobni topish yoki tahlil qilishga yo‘naltirilgan, ko‘pincha aniqlik va qisqa javob talab qiladi
Topshiriq	Talabaga mustaqil faoliyat ko‘rsatish imkoniyatini beruvchi vazifa	Insho yozish, matn tarjimasini, badiiy matn tahlili	Muayyan natijaga erishish yoki ijodiy faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi

Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan ona tili o‘qituvchilarining hammasini ham tajribali, malakali, saviyasi bir xilda yuqori, deb bo‘lmaydi. Belgilangan dastur bo‘yicha faoliyat olib borilayotgan va zamonaviy interfaol usullar dars jarayoniga tatbiq qilinayotgan bo‘lsa-da, talabalarda nutqiy kompetensiya kutilgandek rivojlanmayotgani tajriba-sinov jarayonida, qolaversa, oddiy kuzatuvlarda ham ma’lum bo‘lyapti.

Savol turi	Mazmuni / Tavsifi	Amaliy misol	Rivojlantiradigan ko'nikmalar
Ma'lumotga yo'naltirilgan	Faktik va nazariy bilimlarni aniqlash	“Matnda nechta fe'l zamoni ishlatilgan?”	Xotira, faktlarni aniqlash, nazariy bilimlarni mustahkamlash
Tahlilga yo'naltirilgan	Matn va lingvistik hodisalarni tahlil qilish	“Bu she'rda metafora qanday estetik vazifani bajaradi?”	Tanqidiy fikrlash, matn tahlili, argumentatsiya
Sintetik / integrativ	Bilimlarni birlashtirib yechim chiqarish	“Ushbu asarni tarjima qilganda qaysi stilistik xususiyatlarni saqlash muhim?”	Analitik va integrativ tafakkur, muammoli vaziyatni yechish
Ijodiy	Yangi matn yaratish, alternativ yechim topish	“Badiiy matn asosida qisqa dialog tuzing yoki alternativ yakun yozing.”	Ijodiy fikrlash, kreativ yondashuv, matn yaratish
Baholashga yo'naltirilgan	O'z-o'zini va bilimni baholash	“O'zingiz yozgan esse matnini grammatika va stilistik nuqtai nazardan tahlil qiling.”	Refleksiya, o'z-o'zini baholash, mustaqil tahlil

Bilim ko'nikma va malakani baholay olmadimi, demak, u topshiriq sifatsizdir. Shuning uchun ham savol va topshiriqlar ishlab chiqishda quyidagicha yondashish lozim:

1. O'quv dasturlarida dars, mashg'ulot mavzusini mantiqan to'g'ri qayd etish.
2. Ish rejalaridagi mavzularni ko'zda tutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantira olish imkoniyatini hisobga olib tanlash.
3. Mavzuga doir o'quv topshiriqlarni foydalilik darajasi bo'yicha saralab olish.
4. Bugungi mavzuda, asosan, qanday o'quv topshirig'idan faol foydalanish mumkinligiga to'g'ri tashxis qo'yib olish.
5. Mashqlardan takrorlashni talab qiluvchi o'qish, yozish, gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish.

Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklarida amalda talabalarga beriladigan savollarning mazmuni umuman quyidagicha:

1. Tilshunoslikning qanday bo'limlari bor?
2. Gap bo'laklari soni nechta?
3. To'ldiruvchi necha turga bo'linadi?
4. So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Lab undoshlari nechta?
6. Til undoshlari qanday turlarga bo'linadi?

Mazkur savollar talabada grammatikaga doir muayyan tushunchalarni beradi, biroq buning amaliy ahamiyati sezilmaydi. Bunda mashg'ulot natijasida talabalar til hodisalarini lingvistik jihatdan farqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi mumkin.

“Tilshunoslikka kirish” darsliklarida ham savollardan deyarli shu maqsadda foydalaniladi:

1. Olmosh deb nimaga aytiladi?
2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?
3. Olmoshlar qanday so'roqqa javob bo'ladi?

4. Olmoshlar necha turli bo'ladi?

5. Miqdor bildiruvchi so'zlar o'rnida qaysi olmoshlar qo'llanilishi mumkin?

O'qituvchi guruhga savollar bilan murojaat qiladigan juda ko'p maqsadlar mavjud. O'qituvchi quyidagi maqsadda savollar berishi mumkin:

– o'quv materialini bilish va tushunish darajasini yoki shakllantirilgan vazifalarning shart-sharoitlarini tushunish darajasini aniqlash;

– talabalarning ehtiyojlarini aniqlash va motivatsiyalarini shakllantirish;

– talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, savollar asosida topshiriq berish va olingan natijalarni o'rganish;

– faoliyatda qaror qabul qilish va o'z-o'zini baholashiga imkon berish, masalan, o'qituvchi talabaga biror masalani o'zi hal qilishi, gipotezani shakllantirish va kerakli xulosalar chiqarishga yordam berish uchun savollar beradi.

Talaba berilgan istalgan savolga faqat modal yoki undov so'zlar bilan emas, balki ibora, tasviriy ifoda, maqol, aforizm, rivoyat, hikoyat, she'r va boshqa lisoniy vositalar bilan javob berishi mumkin va bularning qaysi biridan foydalanilayotgani darajalangan holda baholanishi kerak.

Talabani to'g'ri savol berishga qanday o'rgatsa bo'ladi? Har bir o'qituvchi qiyinlik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlardan foydalanishi mumkin. Ularning mazmuni talabalardan savollar tuzishni talab qiladi. Bunday topshiriqlarning ayrim namunalarini ko'rib chiqamiz.

1. Taklif etilayotgan o'quv materialini uchun savollar tuzish. An'anaviy o'qitishda o'qituvchilar talabalarga paragrafdan keyin joylashtirilgan savollarga javob berishni so'rab, ko'rib chiqilgan paragrafga o'z savollarini shakllantirishni kamroq taklif qiladilar. Teskari o'rganish talabalarning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishlarini, masalan, o'qituvchi taklif etgan savollarga e'tibor qaratishlarini nazarda tutadi. Mavzuni o'rganish jarayonida talabalar guruhda muhokama qilmoqchi bo'lgan savollar ro'yxatini tuzadilar.

2. Maqsadni belgilash bosqichida talabalardan dars davomida javob topmoqchi bo'lgan bir qator savollarni shakllantirishlarini so'rashingiz mumkin. Bu savollarni guruhtaxtasida yoki daftarlarda aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Dars oxirida berilgan savollar va olingan javoblarga yana e'tibor berish kerak.

3. Bilimlarni boyitish yoki bilimlarni mustahkamlash bosqichida talabalarga ma'lum bir mavzu bilan bog'liq kalit so'zlarni taklif qilish mumkin. Kalit so'zlarni talabalarning o'zlari qo'yishlari mumkin. Keyin talabalar bu so'zlar haqida savollar tuzishlari kerak. Topshiriqni nafaqat frontal, balki musobaqa shaklidagi juft yoki guruhlarda ham bajarish mumkin. Misol uchun, bir guruh tasodifiy bir kalit so'zni tortadi va buning uchun bir savol hosil qiladi. Ball yaxshi savol uchun berilishi mumkin.

4. Bilimlarni aktuallashtirish bosqichida talaba yoki talaba o'zaro so'rov bilan almashtirilishi mumkin, bunda bir talaba boshqasidan so'raydi, keyin javob beruvchi talaba uchinchisidan so'raydi va hokazo. Bunday so'rovning asosiy sharti: har bir talaba bitta savolga javob berishi va bitta savol berishi kerak.

5. Teskari topshiriqlar. Talabalar odatda topshiriqni bajarishda aniq savollarga javob beradilar. Masalan, yechilgan muammo bo'yicha shart va talablarni shakllantirish yoki muammo shartiga qo'yilgan maksimal talablarni shakllantirish; tayyor chizma, jadval, formula, foto, video uchun savollar bilan chiqish; mavjud

javoblar uchun savollar tuzish. Bunday topshiriqlarni bajarish musobaqa shaklida juft yoki guruhlarda ham tashkil etilishi mumkin.

Ishning uchinchi bobi **“Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasi”** deb nomlangan. Mazkur bob oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlashning metodik ta’minoti, oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlash prinsiplari va vositalari va oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlashning mazmuni yoritilgan.

Oliy filologik ta’lim tizimida o‘quv topshiriqlari talabalarning lingvistik bilimlarini chuqurlashtirish, nutqiy va tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini ta’minlashda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Shu bois, o‘quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasini takomillashtirish til ta’limining samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O‘quv topshiriqlari bilan ishlash metodikasini takomillashtirish, avvalo, ularni ta’limning maqsad va natijalari bilan uyg‘un holda loyihalashni talab etadi. Topshiriqlar nazariy bilimlarni reproduktiv tarzda o‘zlashtirishga emas, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va ilmiy xulosalar chiqarishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu jarayonda kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar muhim metodik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodikani takomillashtirishda o‘quv topshiriqlarining turlarini maqsadga muvofiq tanlash va bosqichma-bosqich qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Dastlabki bosqichda axborot beruvchi va tushuntiruvchi topshiriqlar orqali nazariy bilimlar shakllantirilsa, keyingi bosqichlarda tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlar orqali bilimlar chuqurlashtiriladi. Bu izchillik talabalarning bilish faoliyatini tabiiy rivojlanishiga mos keladi.

O‘quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasini takomillashtirishda baholash va refleksiya mexanizmlarini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Formativ baholash, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash elementlari orqali talabalarning o‘quv faoliyatidagi yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Bu esa, metodik jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, o‘quv topshiriqlarining mazmunini fanlararo integratsiya asosida boyitish metodik samaradorlikni oshiradi. Tilshunoslik fanlarini adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘lash orqali topshiriqlar yanada amaliy va kasbiy yo‘naltirilgan tus oladi.

Oliy ta’limning filologik yo‘nalishida talabalar til va adabiyotga oid chuqur nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va mustahkam malakalarni egallashi zarur. Bu jarayon samaradorligi ko‘p jihatdan **o‘quv topshiriqlarining sifati, turlari va ularni qo‘llash metodikasiga** bog‘liqdir.

O‘quv topshiriqlari – bu talabalarni bilim bilan qurollantirish, ularda amaliy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish vositasidir. Filologik ta’limda topshiriqlar quyidagilarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- tilga oid nazariy bilimlar (fonetika, morfologiya, sintaksis, stilistika);
- til materialini tahlil qilish ko‘nikmasi;
- adabiy matnni anglash, tahlil qilish va talqin qilish malakasi;
- yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish.

Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish – bu ta’lim

sifatini oshirishning asosiy vositasidir. Zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar talabani faol o'rganuvchiga aylantiradi, tanqidiy fikrlash, izchil ifoda, tahliliy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi.

Filologik fanlarni o'qitishga oid mashg'ulotlarda talabalarning o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni samaradorligining pedagogik shart-sharoitlarini tashkil etishga asos bo'lgan omillar va konseptual qoidalar amaliyotga kiritish va samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Quyida tadqiqotimiz doirasida bo'lajak filolog-o'qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining tarkibiy qismi sifatida tilshunoslik darslarida foydalanishga doir interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

“Namunadagidek aytish” metodi – masala yechimining alternativ variantlarini jadval ko'rinishida ro'yxati tuzilib, ushbu yechimlarning bir-biriga yaqinlari, mantiqan o'xshashlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi, umumlashtirilib turli yangi variantlar hosil qilinadi.

Metodning maqsadi: bo'lajak filolog-o'qituvchilarida talaffuz bilan bog'liq muammoning mohiyatini aniqlash, o'z fikrlarini aniq bayon qilish, uni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'tkazish tartibi: muammo yechimining alternativ variantlarini jadval ko'rinishida ro'yxati tuzilib, ushbu yechimlarning bir-biriga yaqinlari, mantiqan o'xshashlari va ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi, umumlashtirilib turli yangi variantlar hosil qilinadi. Masalan: guruhlardan birining bajargan topshirig'i taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Topshiriq: so'zni to'g'ri talaffuz qiling.

O'tkazish tartibi:

- o'quvchilar yakka tartibda so'zning orfoepik tarkibini o'rganish yuzasidan nazariy ma'lumotlarni yozadilar:

- Tovush – so'zning eng kichik, bo'linmaydigan ma'noli qismi.

- Fonema ikki turga bo'linadi.

- kichik guruhlarda bir-biriga yaqin, mantiqan o'xshash va bog'lanishli nazariy ma'lumotlar jadval ko'rinishida ketma-ketlikka keltiriladi;

- umumlashtiriladi;

- bo'lajak ona tili o'qituvchilari tomonidan ketma-ketlikda umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida so'zning fonetik tarkibini o'rganishga doir mustaqil ishlar bajariladi. **Namuna:**

1. – **o'** tovushi – **tor** tarzida aytiladigan 5 ta so'z ayting. **Namuna:** to'r...

2. – **u** tovushi – **tor** tarzida aytiladigan 5 ta so'z ayting. **Namuna:** uy...

3. – **i** tovushi – **tor** tarzida aytiladigan 5 ta so'z ayting. **Namuna:** keldi...

- **Taqdimot o'tkaziladi.**

“Kundaliklar” metodi – ma'lum vaqt oralig'ida guruhning har bir a'zosi tomonidan tug'ilgan g'oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o'rtacha fikrga kelinadi.

Metodning maqsadi: bo'lajak ona tili o'qituvchilarida yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi ijodiy faoliyatni egallash malakalarini integrativ hosil qilish.

O‘tkazish tartibi:

birinchi bosqich: guruhning har bir ishtirokchisi yakka holda ishlash uchun o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallardan birini tanlab oladi. Tarqatma materialda mavzu yuzasidan tayanch tushunchalarning nomi yozilgan. Tinglovchi yakka tartibda tayanch tushunchalar haqida bilganlarini jadval ko‘rinishida shakllantiradilar.

ikkinchi bosqich: bo‘lajak ona tili o‘qituvchilari yakka tartibda mavzuga doir tayanch tushunchalar ishtirokida kundalik faoliyatlarini og‘zaki va yozma tarzda ifodalaydilar. Mazkur vazifa jamoaviy tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

uchinchi bosqich: bo‘lajak filolog o‘qituvchilarining mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir savol-javob o‘tkaziladi.

to‘rtinchi bosqich: talabalar faoliyatini baholash.

“Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish” metodi. Ijodiy faoliyat-amaldagidan farq qiluvchi biror bir yangilik yaratishdir. Yangi bilim, o‘quv va malakalar ko‘rinishida ushbu subyekt uchun oldindan noma’lum bo‘lgan yangilik yaratish borasidagi ijodiy faoliyat.

Mazmun: Kichik guruhlarda “Nutq tovushlari” mavzusini amaliy o‘zlashtirish, kundalik faoliyatda qo‘llashga doir o‘quv topshirig‘i asosida turli bosqichlarda matn yaratish va taqdimot qilish.

Maqsad: bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining amaliy ishlashni faollashtirish, muammolarni hal qilish malakasini shakllantirish, masala yechimini ongli ravishda izlash qobiliyatini rivojlantirish.

Loyihalash – metodni ikki bosqich asosida qurish:

1. Dastlab loyihani fikran yuzaga keltirish, uning rejasi va bajarish bosqichlarini tayyorlash.

2. Loyihani amalga oshirish:

– *axborot bilan ishlash:* matn yaratish uchun turli axborotlarni izlash, saralash, zamonaviy axborot, qiziqarli voqea, mazmunli fikr-mulohazalarni umumlashtirish;

– *qayta ishlash:* muammoni bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tkazish. Bunda muhokama natijasida eng qiziqarli va sermazmun deb topilgan matn muhokama qilinadi va tanlanadi;

– *ijodiy faoliyatni rivojlantirish:* mavjud bo‘lgan bir necha matnlar asosida yangi ma’lumotlarni izlash. Bunda matnni bir ko‘rinishdan boshqasiga o‘tkazish, hikoya qilish, zamonaviy va yangi so‘zlardan foydalanish rejasi tuziladi va vazifalar taqsimlab olinadi;

– *ijodiy masalalarni guruhda yechish:* kichik guruhda tuzilgan matnni tahlil qilish, kundalik faoliyatda ro‘y bergan voqealar bilan boyitish, bo‘lajak mutaxassis sifatida kelajakdagi ish faoliyati bilan bog‘lash, tanlagan kasbi bo‘yicha atamalar bilan boyitish, oila a‘zolari, do‘stlari va ularga bo‘lgan munosabatini aks ettirish va hokazolar.

– *ijodiy faoliyatni guruhiy baholash:* bo‘lajak ona tili o‘qituvchilari tomonidan guruh ishini mustaqil baholash va qiyosiy tahlili, talabalarning o‘zini o‘zi baholashi.

Natija. Metodni qo‘llash natijasida bo‘lajak filolog va ona tili o‘qituvchilarida rivojlanadigan kompetensiyaning mazmuni: bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarida o‘rganganlarini kundalik faoliyatda qo‘llash, ona tili faniga oid kompetensiyalarni

shakllantirishda ijodiy muhitni vujudga keltirish, ona tili fanini o‘qitish va jarayonni boshqarishga ijodiy yondashuvning shakllanishi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida o‘quv topshiriqlarining quyidagi turlarini tasniflashga harakat qildik:

1. **Analitik topshiriqlar** – matnni tahlil qilish, kompozitsiyasini o‘rganish.
2. **Tadqiqot topshiriqlari** – ilmiy maqola, referat yozish.
3. **Ijodiy topshiriqlar** – esse, qissa, maqola, badiiy tahlil yozish.
4. **Tanqidiy fikrlash topshiriqlari** – adabiy asarni baholash, muallif pozitsiyasini izohlash.
5. **Matn tahliliga oid topshiriqlari** – tildagi murakkab ifodalarni tarjima qilish va sharhlash.
6. **Interaktiv topshiriqlar** – onlayn forumlarda fikr bildirish, testlar va viktorinalar.
7. **Loyiha ishlari** – adabiy portretlar yaratish, eksperimentlar o‘tkazish


Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish – bu nafaqat metodik islohot, balki ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasidir. Zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar talabani faol o‘rganuvchiga aylantiradi, tanqidiy fikrlash, izchil ifoda, tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Takomillashtirilgan model quyidagi tuzilishga ega:

Maqsadli komponent. Tizim elementining tuzilish strukturasi o‘rganilayotgan jarayonning asosiy komponenti bo‘lgan maqsad – bo‘lajak filolog-o‘qituvchilarining o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish orqali yozma nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltiriltiradi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, o‘zining me‘yoriy-huquqiy asosiga ega bo‘lib, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida zarur vazifalar amalga oshirib borildi.

Mazmunli-prosessual komponentida bo‘lajak filolog o‘qituvchilarining nutqiy hamda lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish tilshunoslik fanlari yuzasidan ta’limiy yondashuvlar, mexanizmi, metodikasi va baholash mezonlari asosida amalga oshirish hamda bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari nazarda tutilgan.

Natijaviy-baholash komponenti. Komponent yondashuv ta’lim maqsadlarini belgilashning umumiy tamoyillari, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil qilish va ta’lim natijalarini baholash yig‘indisidir. Natijaviy baholash komponenti talabalarning adabiy talaffuz kompetensiyasini rivojlanganligini baholash mezonlari va natijalaridan iborat. Bo‘lajak filolog-o‘qituvchilarining kreativ fikrlash kompetensiyasini rivojlanganligi “yuqori”, “o‘rta”, “past” darajalari bo‘yicha baholandi. Baholash – o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan material bo‘yicha talabalar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlashga xizmat qiluvchi vositadir. Baholashning asosiy turlari:

- diagnostik baholash – mashg‘ulot avvalida talaba bilimni aniqlash;
- formativ baholash – o‘quv jarayonida bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni kuzatish;
- summativ baholash – mavzu, modul yoki kurs yakunida umumiy baho berish asosida takomillashtirishga erishildi. Baholash topshiriqlari nafaqat o‘zlashtirish darajasini aniqlashga, balki talabada mustaqil fikrlash, nutqiy faoliyatga tayyorlik va kommunikativ salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.



2-rasm. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning takomillashtirilgan modeli.

Dissertatsiyaning 4-bobi “**Pedagogik tajriba-sinovini tashkil etish va uning samaradorligi**” deb nomlanib, mazkur bobda tajriba sinov ishlarini tashkil etish maqsadi va vazifalari hamda tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili yoritilgan.

Ilmiy tadqiqotning konsepsiyasi muammoning o‘rganilish tarixiy taraqqiyoti, hayotda tipik ko‘rinishlari tajribada sinab ko‘riladi. Amaliy tajriba tadqiqot nazariyasini to‘ldiradi. Shuning uchun tajriba- sinov ishlari dasturi ilmiy tadqiqotni izchil amalga oshirish tizimi, mexanizmidir. Tadqiqot nazariyasi tajriba-sinov ishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi falsafiy kategoriya tajriba-sinov ishlarining metodologik asosidir. Amaliyotda bu metodika bir qator didaktik va pedagogik yondashuvlarni o‘zida mujassam etadi.

1. Topshiriqlarni bosqichma-bosqich tizimlashtirish.

Amaliyotda topshiriqlarni quyidagi bosqichlarda tashkil etish samarali hisoblanadi:

- **Axborot beruvchi bosqich** – yangi bilimlarni egallash va tushunishga yo‘naltirilgan topshiriqlar (nazariy ma’lumotlarni o‘rganish, grammatik qoidalarni eslab olish).

- **Mustahkamlovchi bosqich** – o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va tizimlashtirish (mashqlar, testlar, matn bo‘yicha savollar).

- **Rivojlantiruvchi bosqich** – tahliliy va ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi topshiriqlar (matn tahlili, stilistik va pragmatik vaziyatlarni yechish, muammoli topshiriqlar).

Bu bosqichma-bosqich yondashuv talabalarda bilimlarni izchil va chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

2. Interfaol va muammoli metodlardan foydalanish

Amaliyotda talabalarining faolligini oshirish maqsadida interfaol metodlar keng qo‘llaniladi:

- **Munozara va diskussiya** – matnni tahlil qilish, ilmiy farazlar ilgari surish.

- **Loyiha asosida o‘qitish** – mustaqil va guruh bilan ishlash orqali natijaga erishish.

- **Keys-stadi va rolli o‘yinlar** – nutqiy vaziyatlarni amaliyotga tatbiq etish.

Bu metodlar talabalarining mustaqil va ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi, hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Baholash va refleksiya mexanizmlari

Shu jihatdan olib qaraganda filologik ta’lim yo‘nalishida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalar tizimida talabalarda tilshunoslikni o‘qitishga oid o‘quv materiallar asosida mustaqil, mantiqiy fikrlash hamda o‘z fikrini nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri va ravon ifodalash malakasini shakllantirish hamda takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko‘rish muhim pedagogik muammodir.

1. **Tayyorlovchi bosqich.** Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sermahsul usuli bo‘lib, u kuzatishlar jarayonida tug‘ilgan g‘oya, taqdim etilgan tavsifa va ishlab chiqilgan o‘quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini belgilab

beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ham talabalarda til o'quv predmeti, xususan, oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, shuning barobarida ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish ko'nikmasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

2. Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish usul, shakl va vositalari aniqlanib, oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga asoslangan mashq va topshiriqlar asosida talabalarda mantiqiy fikrlash hamda tanqidiy fikrlashga oid ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Ijodiy izlanishga asoslangan o'qitishga doir topshiriqlar, oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish ko'nikmasini rivojlantirish orqali, avvalo, talabaning o'ylab olishga, to'g'ri fikr yuritishga, tarixiy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rta qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga e'tibor qaratildi.

3. Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- o'qituvchilar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;
- ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars jarayoniga to'liq tatbiq etildi;
- olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtirildi.

- oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, so'z zaxirasini boyitish, mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirishning yoritilmagan qirralari aniqlandi va kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga material bo'la oladigan tavsiyalar berildi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent amaliy fanlar universiteti, Termiz davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Qo'qon davlat universitetlarida o'tkazildi.

Tajriba-sinovda jami 400 nafar talaba ishtirok etdi. Shundan 200 tasi sinov guruhiga, 200 nafari nazorat guruhiga olindi. Tajribaning dastlabki kunlarida nazorat sinflaridan ham, tajriba sinflaridan ham yozma ishlar olindi. Bizga ikkala guruhning ham darslarni o'zlashtirish darajasi deyarli bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi.

Natijalarga asoslangan holda talabalarda tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar shakllantirilganligi darajasini aniqlash yuzasidan tajriba boshi va yakunidagi natijalarni aniqlash bo'yicha tajriba hamda nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishlari matematik-statistika metodi yordamida tahlil qilindi. Tajriba-sinovda 400 nafardan ortiq talaba qatnashdi. Hisoblash qulay bo'lishi uchun representativ ravishda tajriba-sinov o'tkazgan har bir OTMdand guruhlar olib 400 nafar talaba bilan o'tkazilgan sinov natijalarini ko'rib chiqamiz. Shundan 200 nafar talaba tajriba guruhida va 200 nafar talaba nazorat guruhida qatnashishdi.

Talabalar talaffuz mashqlari ustida ishlab, nutqiy ko‘nikma hamda malakalarning shakllanganlik darajasi

8-jadval

Ta'lim muassasalari	Talabalar soni	Tajriba-sinov boshida						Tajriba-sinov yakunida					
	Tajriba guruhi	To'g'ri va to'liq bajarilgan		Qisman va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan		To'g'ri va to'liq bajarilgan		Qisman va xato bilan bajarilgan		Xato bajarilgan	
	Nazorat guruhi	t	n	t	n	t	n	t	n	t	n	t	n
TAFU	28 26	4	5	14	10	10	11	13	5	11	12	4	9
Qo'qon universiteti	30 27	6	5	13	12	11	10	13	6	12	12	5	9
TAFU	32 30	7	7	14	12	11	11	16	6	13	14	3	10
Ter DU	30 31	5	5	14	13	11	13	14	6	11	14	5	11
UrDU	29 28	4	6	13	12	12	10	13	5	12	13	4	10
Ter DU	26 28	3	2	12	14	11	12	12	3	11	13	3	12
Jami	200 200	29	30	80	73	66	67	81	31	70	78	24	61
% da	200 200	16,6	17,7	45,7	42,9	37,7	39,4	46,3	18,2	0,4	45,9	13,7	35,9

Bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarida adabiy talaffuz ko'nikmasini shakllanganlik darajasining tajriba yakunidagi samaradorlik ko'rsatkichlari.

9-jadval

	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari		
		To'g'ri va to'liq bajarilgan	Qisman va xato bilan bajarilgan	Xato bajarilgan
Tajriba guruhi	200	91	80	29
Nazorat guruhi	200	36	83	81

Xuddi yuqoridagidek belgilashlar kiritish natijasida quyidagilarga ega bo'lamiz:

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari –

$$\begin{cases} X_i & 3, & 2, & 1 \\ n_i & 81, & 70, & 24 \quad (n = 175) \end{cases}$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari –

$$\begin{cases} Y_j & 3, 2, 1 \\ m_j & 31, 78, 61 \quad (m=170) \end{cases}$$

Pirsonning muvofiqlik kriteriyasi – Xi kvadrat bo'yicha (1) va (2) tizimlar asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$X_{n,m}^2 = \frac{1}{n \cdot m} \sum_{i=1}^3 \frac{(nm_i - mn_i)^2}{m_i + n_i} = \sum_{i=1}^3 \frac{(m_i - n_i)^2}{m_i + n_i}.$$


Formula asosida $X_{n,m}^2$:

$$X_{n,m}^2 = \frac{(31-81)^2}{31+81} + \frac{(78-70)^2}{78+70} + \frac{(61-24)^2}{61+24} = \frac{2500}{112} + \frac{64}{148} + \frac{1369}{85} =$$

$$= 22,32 + 0,43 + 16,11 = 38,86$$

Ushbu mezon bo'yicha ozodlik darajalari $v = 4 - 1 = 3$ ga teng, X1-kvadrat taqsimotining jadvali bo'yicha kritik nuqtani topamiz. $p = 0,95$ uchun ishonchlilik ehtimoli

$$t_{0,95}(V) = t_{0,95}(3) = 7,815 \text{ ga teng.}$$



3-rasm. O'tkazilgan tajriba sinovlari o'tkazilgan OTMLar bo'yicha tajriba yakunidagi natijalar.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan, ya'ni **1,15 foizga** oshgan. Demak, bo'lajak filolog o'qituvchilarida o'quv topshiriqlar ustida ishlash ko'nikmasini o'zlashtirish darajasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Filologiya fanlarini o'qitishda tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari asosiy qismni tashkil etadi, ammo mashg'ulotlarda, darslik va qo'llanmalarda hali ham an'anaviy o'quv topshiriqlaridan foydalanilmoqda. Agar o'quv topshiriqlari pedagogik, psixologik va lingvometodik zaruratlar nuqtai nazaridan takomillashtirilsa, savol, mashq va topshiriq turlari tafakkurni rivojlantiruvchi yondashuv asosida ishlab chiqilsa, kasbiy ko'nikmalarning samarali rivojlanishiga erishish mumkin.

2. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlarining didaktik asosi ilmiy-nazariy tomondan takomillashtirilgan, tushunchalarga pedagogik, psixologik va

lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berilib, ularning o'zaro farqi, qo'llanilish o'rinlari, til ta'limida tutgan o'rni va vazifalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

3. Oliy filologik ta'limda mashqlardan, asosan, ko'nikma va malaka hosil qilishda, savol va topshiriqlardan biror amalni bajarishga yo'naltirish, fikrlashga undash hamda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakani baholash maqsadlarida foydalanish til ta'limida nutqiy kompetentsiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga erishish mumkinligi isbotlash bugun oliy ta'lim oldida turgan muhim masala hisoblanadi.

4. Filologik ta'lim jarayonida matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning til ta'limi uchun lisoniy-uslubiy darajalari aniqlanib, lingvodidaktikada savol tuzishga pragmatik usulda yondashishning ilmiy-metodik afzalliklari o'rganilishi zarur.

5. Mavzuni mustaqil o'qib tushunish ko'nikmasi bilan birga talabada muammoni hal qilish, munosabat bildirish, ma'lumot qidirishi, fakt va dalillar ustida ishlash malakasini ham baravar rivojlantirish lozimligini nazarda tutib, o'quvchini to'g'ri va mantiqli savol berishga o'rgatish yo'llari, turlari va qo'llanadigan innovatsion metodlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish mazkur sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

6. Oliy filologik ta'limda baholash tizimi uchun ma'lumotlarni tanlash, solishtirish, muhimni nomuhimdan farqlash, nazariy ma'lumotni amalda qo'llay olish hamda o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlar tizimi takomillashtirilsa, kasbiy ko'nikma va kompetensiyalar oson egallanadi.

7. Tafakkurni rivojlantiruvchi mashqning topshiriqdan farqi aniqlab olinsa, zarur kasbiy ko'nikmalar tezroq shakllanishi mumkin. Mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarda oddiy izlanishga undamydigan topshiriq xarakteridagi mashqlardan ham foydalanib kelinadi. Asosi takronni tashkil qiluvchi tom ma'nodagi fikrlashga yo'naltiruvchi mashqlar dastlab o'quvchida egallangan bilimga aloqador ko'nikma, undan keyin malakani hosil qiladi.

8. Filologiya fanlarini o'qitish jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi yondashuv asosida takomillashtirilgan savol, mashq va topshiriqlardan foydalanilsa, kasbiy ko'nikmalar rivojlanib, natijada o'quvchilarning o'qish savodxonligi ma'lum darajada oshadi. Natijada turli uslubdagi matnlarni eshitib tushuna oladi, eshitilgan, o'qilgan matn haqida nutq so'zlay oladi, matndagi oshkor va yashirin ma'nolarni fahmlay oladi, tafakkur qilish hisobiga o'z fikrini ixcham shaklda yozma bayon qila oladi.

9. Tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, odatda, talabani fikrlashga, o'quv topshiriqlari bilan ishlashga yo'naltirishi va shu bilan birga shakllangan bilim ko'nikma va malakalarni sinash vazifasini ham bajaradi. Ta'kidlash kerakki, topshiriq, umuman, mashg'ulotni tashkil etish vositasi hisoblanadi, u o'z ichiga mashqni ham, savolni ham sig'diradi, o'quvchi tez fikrlashni o'rgansa, ta'lim mazmunini samarali o'zlashtiradi.

10. Oliy filologik ta'limida tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriq, "mantiqiy fikrlash", "tanqidiy fikrlash" tushunchalariga ma'no-mohiyatiga ko'ra pedagogik,

psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha ta'rif berish lozim, ta'lim jarayonida, darslik yaratishda uning qo'llanilish o'rnini aniqlangan holatda foydalanilsa, amaliy ahamiyati yanada oshishi mumkin. Tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriq tushunchasining pedagogik ensiklopediyada izohi berilmagan, shuningdek, o'zbek tilining izohli lug'atida ham topshiriq so'ziga o'quv topshirig'i sifatida ta'rif kiritilishi lozim.

11. Oliy filologik ta'limda o'quv materiallari bilan ishlashda matnga, suhbatdoshga vaziyatdan kelib chiqib savol berishning darajalari aniqlanib, savol tuzishga tafakkurni rivojlantiruvchi usulda yondashilsa, o'quvchilarda o'zaro muloqot samarali bo'ladi, o'qituvchi "hozirgi o'zbek adabiy tili" va boshqa tilshunoslik fanlari mashg'ulotlarida talabani tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlar orqali bitta savolga bir nechta javob bera olishga tayyorlashi uning istalgan nutq vaziyatida asqotishi mumkin.

TAVSIYALAR

1. Oliy filologik ta'limda lug'atlar asosida o'rganilishi, bunda o'quv lug'atlariga alohida e'tibor berilishi, OTM o'quvchilari uchun turli shakldagi izohli, etimologik lug'atlar, elektron, multimediali orfoepik va imlo lug'atlari, ayniqsa, sinonim so'zlar o'quv lug'atlari bosma, elektron va multimediali shaklda yaratish.

2. Oliy filologik ta'limda o'qituvchilar, darslik mualliflari o'quv topshiriqlari tuzish bo'yicha yetarli ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, oliy o'quv yurtlarining filologiya, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlari talabalari, magistratura hamda malaka oshirish bosqichlarida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi bo'yicha maxsus kurs o'qitilishi.

3. Oliy filologik ta'limda metodika bo'yicha darslik va metodik qo'llanmalarda tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha bo'lim ajratish zarurati bor, zero o'quv topshiriqlari ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi, mashg'ulotni tashkillashtirish, o'tkazish va natijalarni baholash.

4. Uzluksiz ta'lim tizimida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi lozim, xususan, matnga, o'quv materialiga, darsda va darsdan tashqari holatda mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv topshiriqlari tuzish usullari, tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarining baholash bilan aloqadorligi, o'quv topshiriqlari va blum taksonomiyasi, o'quv topshiriqlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ХАЗРАТКУЛОВА ОЗОДА АБДУГАНИЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ОСНОВ
РАБОТЫ НАД УЧЕБНЫМИ ЗАДАНИЯМИ В ВЫСШЕМ
ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (узбекский язык)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ доктора (DSc) по педагогическим наукам**

Бухара - 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером В.2024.4.DSc/Ped.1015 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.buxdpi.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net)

Научный консультант: **Хамроев Гофир Хасанович,**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Сафарова Рохат Гайбуллаевна,**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Хамроев Алижон Рузикулович,
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумаев Турсунали
доктор филологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 г. в ___ на заседании Научного совета DSc.01/2025.27.12.Ped.13.01 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном педагогическом институте. (Адрес: 200130, г. Бухара, ул. Пиридастгир, 2. Тел.: (365) 226-10-97; факс: (365) 226-66-75, e-mail: buxdpi@buxdpi.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного педагогического института (зарегистрирована под No ___). (Адрес: 200130, Бухара, ул. Пиридастгир, 2. Тел.: (365) 226-10-97. e-mail: buxdpi@buxdpi.uz)

Автореферат диссертации разослан “___” апреля 2026 года.

(реестр протокола рассылки № ___ от «___» _____ 2026 г.)

Б.Б.Мамуров
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н. (DSc), профессор

Г.Р.Акрамова
Ученый секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.п.н. (DSc), профессор

М.М.Бафаев
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.психол.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой системе образования, в частности, в преподавании языков, формирование навыков XXI века, развитие речевой и профессиональной компетенции исследуется как приоритетная задача. В «Концепции международного образования UNESCO до 2030 года» подчеркивается, что образование является важнейшим фактором в поощрении качественного творческого мышления и знаний¹. Среди достижений обучения иностранным языкам, принятых в качестве стандарта в области методики преподавания международного языка, в качестве актуальной задачи определены организация обучения на основе учебных и самостоятельных образовательных заданий в ведущих высших учебных заведениях Германии, Франции, Америки, Южной Кореи, Швейцарии, Турции, Венгрии, России и Китая, внедрение новых педагогических технологий на основе современного подхода к содержанию и методам обучения.

В мировой научно-методической литературе по обучению языкам особое внимание уделяется работе с текстом, пониманию и реагированию на информацию, представленную в различных стилях, работе с упражнениями, вопросами и заданиями. Важное значение имеет уровень полезности информации, представленной на каждом занятии, для студента в повседневной жизни и эффективное использование вопросов, заданий и упражнений, развивающих мышление в образовательном процессе. В опыте международного языкового образования проводятся научные исследования по таким приоритетным направлениям, как ориентация учебных заданий на эффективность взаимного общения, формирование учебных заданий на основе определенных критериев, а также преподавание специальных дисциплин в интеграции с другими дисциплинами в современных условиях глобализации.

В Узбекистане проводится системная работа по повышению престижа и статуса узбекского языка как современного узбекского литературного языка, внедрению методики преподавания современного узбекского литературного языка. В частности, развитие мышления учащихся на современных уроках узбекского литературного языка рассматривается как приоритетная задача. Новая языковая политика, сложившаяся в стране, предъявляет необходимые требования и к ее образованию. В настоящее время «кардинальное повышение качества преподавания узбекского языка и литературы во всех звеньях системы образования и подготовки высококвалифицированных кадров в этой области» ставит актуальной задачей филологическое образование, в частности, совершенствование научно-методических основ разработки учебных заданий, развивающих мышление, ориентирующих на самостоятельную работу»².

¹Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea)

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4797-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил 14 май, № 94.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года, № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-5850 «О мерах по коренному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 419 «О Департаменте по вопросам духовности и развития государственного языка» от 5 июля 2021 года, № 139 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности фундаментальных и прикладных исследований по узбекскому языку и литературе» от 11 марта 2020 года, а также в Программе по реализации преподавания современного узбекского литературного языка на 2020-2030 годы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики.»

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Эта часть освещена на основе следующих источников: В ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях особое внимание уделяется методике преподавания языка, исследуется проблема внедрения современных технологий в учебный процесс. В частности, вопросы, связанные с исследовательской проблемой, изучаются во многих научных центрах, таких как Mugla Üniversitesi (Турция), Indiana University (США), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Великобритания), Belfield pedagogical university (Германия), Научный центр гуманитарных исследований (Россия).

Разработана система исследования особенностей изучения языка посредством работы над текстом и организации самостоятельной работы в этой области (Турция); по функциям учебных заданий (Российская Федерация); проведены наблюдения по проблемам, связанным с развитием профессиональных навыков (США); компетентностные подходы в преподавании языка (Великобритания); В высших учебных заведениях Германии работа над учебными заданиями является приоритетной задачей в развитии профессиональной компетентности.

В ведущих высших учебных заведениях и научных центрах проводятся исследования по использованию интерактивной системы обучения (interactive E-learn) в мировой системе образования. В частности, проводятся научные исследования по темам Purdue University (США), внедрение интерактивного

образования, International Institute for Sustainable Development (IISD) ООН, проблемы преподавания современного узбекского литературного языка (Баку: Azərbaycan Devlet Pedagoji Universiteti).

Степень изученности проблемы. Важные научно-методические исследования по обучению учащейся молодежи самостоятельному и критическому мышлению, преподаванию лингвистических дисциплин проводили Ж.Г.Юлдашев, М.Х.Махмудов, Р.Сафарова, У.Толипов, Ш.А.Абдуллаева, Б.И.Ходжаев³. По теме исследования И.А.Аллаёров, О.Р.Розиков, Р.Ибрагимов, Б.Р.Адизов, С.Матчанов, К.Хусанбоева, Г.Н.Нажмиддинова изучали вопросы развития учебно-познавательной деятельности обучающегося, повышения активности учащегося посредством учебных заданий⁴.

Проблема повышения эффективности обучения родному языку и обновления содержания образования исследованы А.Гулямовым, Х.Неъматовым, Р.Сафаровой, Д.Юлдашевой, Ш.Юсуповой, Н.Юлдашевой, М.Саидовым, Н.Алавуддиновой, Т.Юсуповой, Х.Мухитдиновой, Г.Хамроевым, М.Турабоевой, М.Миркосимовой, К.Мавлоновой, Г.К.Расуловой⁵.

³Юлдашев Ж.Г. Заонавий дарс технологияси. Укув-услугий кулланма. «Фан ва технология»Тошкент, 2020. – 240 б. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари: пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 42 б., Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон ОТМларида Ҳозирги ўзбек адабий тили таълими назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док-ри. дисс. – Т., 1998. – 252 б., Толипов У.К. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий куникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Педфандок-рию дисс. – 2004. – 242 б.,

⁴Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения: автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 1994. – 44 с.; Розиков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. – М.: Учитель, 1981. – 103 с.; Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: Қори Ниёзий номли ЎзПФТИ, 2002. – 265 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 280 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида талабаларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док-ри дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2006. – 262 б.

⁶Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 37 с. Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 137 б., Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида лугавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 123 б., Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2000. – 25 б., Алавуддинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2008. – 24 б., Юсупова Т. Узлуксиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлақларни ўргатиш: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 22 б., Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ – Тошкент, 2011. – 270 б., Намроев Г. Она тилдан о'қув топшириқлари тuzish metodikasi. –Toshkent, Donishmand ziyo. 2021. 156 б., То'рабоева М. 5-9-синф она тили та'лимиде узвийликни та'минлаш асосида тафаккурни ривожлантирувчи машқлар тизimini такомиллаштириш: пед. фан. д-ри. ... дисс. автoref. NamDU. – Namangan, 2025. – 25 б.б Мирқосимова М. “Badiiy Pedagogika” Lesson press nashriyoti. 2019 у. Т. 184 бет., Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн оркали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан.фал.док...дисс.автorefерати.-Тошкент:2019.-226. ⁶Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1976. – 416 с.; Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. – М., 1976. –280 С. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.

⁵ Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 37 с. Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед. фан. номз. ... дисс.

В исследованиях ученых стран Содружества Независимых Государств (СНГ) М.В.Кларина, А.И.Липкиной, В.А.Шамис, Л.В.Хохловой, Д.М.Шакировой, С.В.Марудиной, И.О.Загашева, Ю.А.Самарина, Л.С.Рубинштейна, Ю.Д.Божовича, Ж.А.Пономарева, А.Н.Леонтьева⁶ освещены вопросы обучения критическому мышлению, описания учебных заданий.

В исследованиях зарубежных ученых D.Galperin, R.Pol, M.Scriven, P.Facione, R.Strenberg, Y.Torrens, R.Boostrom, J.Huges, S.Schafersman, Jak Richards изучены теоретические и практические вопросы развития креативного и критического мышления обучающихся, преподавания языка в высшем филологическом образовании.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Диссертация выполнена в соответствии с планом научно-исследовательских работ Бухарского государственного педагогического института в рамках темы «Актуальные проблемы обучения узбекскому языку (2022-2026 гг.).»

Целью исследования является совершенствование научно-методических основ работы над учебными заданиями в высшем филологическом образовании.

Задачи исследования:

определение дидактических возможностей учебных заданий в высшем филологическом образовании, их места и задач в языковом образовании;

обоснование функции учебных заданий в высшем филологическом образовании, возможности достижения системного формирования и развития речевой компетенции в языковом образовании;

доказать лингводидактические преимущества прагматического подхода к формулированию и постановке вопросов в филологическом образовании;

уточнение методических возможностей работы над учебными заданиями в высшем филологическом образовании, классификация его видов и

ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 137 б., Юлдашева Н. Умумий ўрта таълим мактабларида луғавий синонимларни янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 123 б., Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2000. – 25 б., Алавуiddинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент, 2008. – 24 б., Юсупова Т. Узлуксиз таълим тизими асосида мактабда ўқувчиларга бош бўлакларни ўргатиш: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. ТДПИ. – Тошкент, 1998. – 22 б., Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. номз. ... дисс. ТДПИ – Тошкент, 2011. – 270 б., Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. –Toshkent, Donishmand ziyo. 2021. 156 b., To'raboyeva M. 5-9-sinf ona tili ta'limida uzviylikni ta'minlash asosida tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar tizimini takomillashtirish: ped. fan. d-ri. ... diss. avtoref. NamDU. – Namangan, 2025. – 25 b.6 Mirqosimova M. “Vadiiy Pedagogika” Lesson press nashriyoti. 2019 y. T. 184 bet., Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн оркали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. фал. док. ... дисс. автореферати. – Тошкент: 2019. – 226.

⁶ Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1976. – 416 с.; Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика. – М., 1976. – 280 С. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.

механизмов использования современных технологий обучения;

совершенствование системы оценки в высшем филологическом образовании, эффективности практического применения учебных заданий, развивающих навыки самостоятельного мышления студентов.

В качестве **объекта исследования** определен процесс совершенствования научно-методических основ работы над учебными заданиями в высшем филологическом образовании, к экспериментальной работе были привлечены студенты Ташкентского университета прикладных наук, Термезского государственного университета, Кокандского государственного университета, Ургенчского государственного университета.

Предметом исследования являются формы, методы, технологии совершенствования научно-методических основ работы над учебными заданиями в высшем филологическом образовании.

